

EKSTRADITSIYA JARAYONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO STANDARTLARI

Nurmatova Aziza Sirojiddin qizi

“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti, “Ekologiya va huquq” fakulteti,

“Huquqiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: nurmatovaaziza902@gmail.com

Tel: +998 90-608-21-96

Annotatsiya: Maqolada ekstraditsiya institutining xalqaro huquqdagi o‘rni va uning inson huquqlari bilan bog‘liq murakkab jihatları tahlil qilinadi. Zamonaviy amaliyot shuni ko‘rsatadiki, shaxsni topshirish faqat jinoyat-huquqiy hamkorlik vositasi emas, balki gumanitar talablar bilan cheklangan mexanizmga aylangan. “Soering v. United Kingdom” (1989) ishi ushbu sohada burilish yasab, qiynoq, g‘ayriinsoniy munosabat yoki o‘lim jazosi xavfi mavjud bo‘lsa, ekstraditsiya xalqaro huquqqa zid ekanligini belgiladi. Shuningdek, Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi Konvensiya, MPGPP va mintaqaviy sudlar yondashuvları asosida ekstraditsiyaning mutlaq cheklovlari, xavflarni baholash mezonları va davlat majburiyatlari yoritiladi. Tadqiqotning ahamiyati inson huquqlari va ekstraditsiya bo‘yicha xalqaro standartlarning shakllanishi hamda evolyutsiyasini tizimli tahlil qilishidadir.

Kalit so‘zlar: Ekstraditsiya, shaxsni topshirish, inson huquqlari, xalqaro jinoyat huquqi, qiynoq taqiqi, o‘lim jazosi, g‘ayriinsoniy muomala, ekstraditsiya cheklovlari, xalqaro sud amaliyoti, Soering ishi, “death row phenomenon”.

Аннотация: В статье анализируется роль института экстрадиции в международном праве и его сложная связь с правами человека. Современная практика показывает, что выдача лица является не просто инструментом уголовно-правового сотрудничества государств, но механизмом, ограниченным гуманитарными требованиями. Дело «Сёринг против Соединённого Королевства» (1989 г.) стало поворотным моментом, подтвердив, что экстрадиция недопустима, если существует риск пыток, бесчеловечного обращения или смертной казни. В статье также рассматриваются абсолютные ограничения, критерии оценки рисков и международные обязательства государств на основе Конвенция против пыток и других жестоких, бесчеловечных или унижающих достоинство видов обращения и наказания, МПГПП и практики региональных судов. Научная значимость исследования заключается в системном анализе формирования и эволюции международных стандартов защиты прав человека в сфере экстрадиции.

Ключевые слова: Экстрадиция, выдача лица, права человека, международное уголовное право, запрет пыток, смертная казнь, бесчеловечное обращение, ограничения экстрадиции, международная судебная практика, дело Soering, «феномен коридора смерти».

Annotation: *This article examines the role of the extradition institution in international law and its complex relationship with human rights. Modern practice demonstrates that extradition is no longer merely a tool of criminal cooperation between states, but a mechanism restricted by humanitarian considerations. The case of Soering v. United Kingdom (1989) marked a turning point by establishing that extradition is incompatible with international law if there is a risk of torture, inhuman treatment, or the death penalty. The article further analyzes absolute prohibitions, risk assessment standards, and state obligations based on the Convention against Torture and Other Cruel, Inhuman or Degrading Treatment or Punishment., the ICCPR, and regional court jurisprudence. The scientific significance of the study lies in its systematic analysis of the development and evolution of international human rights standards in the field of extradition. obligations of states. The scientific significance of the research lies in its systematic examination of the evolution of international legal norms and practice aimed at protecting human rights in the process of extradition.*

Keywords: *Extradition, surrender of a person, human rights, international criminal law, prohibition of torture, death penalty, inhuman treatment, limitations of extradition, international judicial practice, Soering case, “death row phenomenon”.*

1989-yilda Germaniyada yashovchi Jürgen Soering nomli shaxs AQShda qotillikda ayblanib, Angliyadan Virjiniya shtatiga ekstraditsiya qilinishi so‘raldi. Soeringning advokatlari esa uni o‘lim jazosi kutayotgan shtatga topshirish inson huquqlariga zid ekanini ta’kidladilar. Ushbu holat xalqaro hamjamiyatning ekstraditsiya institutiga bo‘lgan yondashuvini tubdan o‘zgartirdi.

Hozirgi davr jinoyatchiligining o‘zgaruvchan tabiati, transmilliy jinoyatlarning yuzaga kelishi va jinoyatchilarning turli davlatlarda yashirinishi bugungi kunda xalqaro hamjamiyat uchun jiddiy xavotir tug‘diradi. Shu sharoitda, davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha resurslarini birlashtirib hamkorlik qilishi zaruriy talabga aylangan. Xalqaro jinoyat ishlari doirasida hamkorlikning muhim vositalaridan biri — ekstraditsiya instituti hisoblanadi. Ushbu institut, nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham javobgarlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ekstraditsiya instituti xalqaro huquqning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, uni tartibga soluvchi xalqaro normalar bilan bir qatorda milliy qonunlar ham doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Bu esa jinoyatchilik darajasining o‘sishi va unga qarshi samarali kurashish ehtiyojining kuchayishini ko‘rsatadi. Ekstraditsiya institutining tartibga

solinishi va uning nazariy hamda amaliy ahamiyati xalqaro va mintaqaviy darajada yangi mexanizmlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ekstraditsiya – bu bir davlatning so'roviga binoan, jinoyat sodir etgan shaxsni boshqa davlatga rasmiy ravishda topshirish jarayoni bo'lib, u orqali davlatlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi hamkorlik ta'minlanadi va shaxsning javobgarlikdan qochishi oldi olinadi.¹ Ekstraditsiya davlatlar o'rtasidagi o'zaro ikki tomonlama shartnomalar asosida tartibga solinadi. Ta'kidlash joizki, ikki tomonlama ekstraditsiya shartnomalari tarixda ko'p uchramaydi. Ko'p tomonlama ta'sirchan Konvensiyalardan biri 1957-yilda qabul qilingan "Ekstraditsiya to'g'risida"gi Yevropa Konvensiyasi hozirda ham amalda. Yangi imzolanadigan ekstraditsiya to'g'risidagi shartnomalar loyihasini tayyorlash uchun esa 1990-yilda BMTning "Ekstraditsiya to'g'risida"gi Namunaviy shartnomasi tayyorlangan. 2001-yilda BMT nazoratidagi hukumatlararo ekspertlar guruhi tomonidan tayyorlangan "Ekstraditsiya to'g'risidagi Namunaviy shartnomaning qayta tayyorlangan yo'riqnomasi"ni qabul qildi. Ekstraditsiya to'g'risidagi umumiy shartnomalarga qo'shimcha ravishda, ekstraditsiya to'g'risidagi tushunchalar BMTning 2003-yilgi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyasi va 2000-yilgi "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi kabi maxsus mavzularga tegishli bo'lgan xalqaro Konvensiyalarda ham keltirilgan.²

Ekstraditsiya instituti, odatda, jinoyatchilikka qarshi kurash vositasi sifatida ko'riladi. Biroq, so'nggi yillarda uning amaliyoti inson huquqlari bilan bevosita bog'liq ekanligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Jinoyat sodir etgan shaxsni boshqa davlatga topshirish jarayoni nafaqat davlatlar o'rtasida javobgarlikni ta'minlash vositasi, balki shaxsning hayoti, sog'ligi va qadr-qimmatini himoya qilish nuqtai nazaridan ham cheklovlarga ega mexanizm sifatida tartibga solinadi. Xalqaro huquqda ekstraditsiya cheklovlari asosan qiynoq, g'ayriinsoniy muomala yoki o'lim jazosi xavfi mavjud holatlarga nisbatan qo'llanadi. Shu bilan birga, davlatlar ekstraditsiya so'rovlari bilan shug'ullanganlarida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro majburiyatlarga rioya qilishi shart. Bu tamoyil ekstraditsiyani yagona jinoyatga qarshi vosita emas, balki inson huquqlarini hurmat qilishni ta'minlovchi murakkab huquqiy institutga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan, eng mashhur va ta'sirli misollardan biri – Soering v. United Kingdom (1989) ishi. Ushbu ish ekstraditsiya institutining inson huquqlarini himoya qilishdagi rolini yoritib, "death row phenomenon" tushunchasini shakllantirdi va xalqaro standartlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

¹ Bassiouni, M. Cherif. *International Extradition: United States Law and Practice*. Oxford University Press, 2017, p. 3.

² Umarxanova D.SH., X.R.Ochilov. Xalqaro jinoyat huquqi: Darslik / Ma'sul muharrir y.f.d. B.I.Ismailov. – T.: TDYU, 2019. – 208 bet.

Germaniya fuqarosi bo'lgan 18 yoshli Yens Sooring 1985-yil mart oyida Amerika Qo'shma Shtatlarining Virjiniya shtatida ishqiy aloqalari bo'lgan qizning ota-onasini o'ldirib, qochib ketayotib, Angliyada 1986-yil aprel oyida firibgarlik gumoni bilan qo'lga olinadi. Tekshirish davomida AQShdagi qotillik yuzasidan gumonlanuvchi ekanligi ham aniqlanadi. Shundan so'ng Virjiniya shtati sudi Sooringga nisbatan qotillik jinoyati uchun ish qo'zg'atganligi sababli AQSh va Angliya o'rtasidagi ekstradiksiya qilishga oid bitimga muvofiq kerakli protseduralar boshlanadi. Angliya o'lim jazosini bekor qilgani uchun AQShdagi o'z elchixonasi orqali ayblanuvchiga o'lim jazosini bermaslikka oid diplomatik kafolatni talab qiladi. AQSh prokuraturasi esa Angliya tomonining talabini sudyaga yetkazishga va'da bersa ham, ayblanuvchiga nisbatan o'lim jazosini so'ramoqchi ekanligini ma'lum qiladi. Shundan keyin Yens Sooringning asl mamlakati hisoblangan Germaniya tomonidan ham ayblanuvchini o'zlariga topshirish talabi yetkazilsa-da, Angliya birinchi bo'lib ekstraditsiya talabini qo'ygan AQShga Sooringni jo'natish jarayonlarini davom ettiradi. Bundan norozi bo'lgan Sooring agar AQShga ekstraditsiya qilinadigan bo'lsa, o'lim jazosi mavjud bo'lgan Virjiniya sudida o'zining sud qilinishini kutish muddati, undan keyin o'lim jazosining qo'llanilishini kutish muddati kabi holatlar bilan yuzma-yuz kelishini vaj ko'rsatib, bunday holatlar Yevropa inson huquqlari konvensiyasining 3-moddasidagi qiynoqqa solinish yoki g'ayriinsoniy muomala ko'rishga teng bo'lganligi uchun Konvensiyaga zid deya Yevropa Inson Huquqlari Komissiyasiga murojaat qiladi.³ Komissiya esa Sooringning AQShga ekstraditsiyasi Konvensiyaning 13-moddasi (samarali himoyani olish huquqi)ga xilof bo'lsa-da, 3-(qiynoqqa solinish va g'ayriinsoniy muomalaning taqiqlanishi) va 6-moddalariga (adolatli sud qilinish huquqi) xilof emasligi to'g'risidagi fikrini e'lon qiladi. Shundan so'ng ushbu ish bo'yicha Yevropa inson huquqlari sudiga murojaat qilinadi.

Sud shunday xulosaga keldi: Agar shaxsni topshirish (ekstraditsiya) qiynoq, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala xavfi mavjud bo'lgan davlatga olib borilsa, bu Yevropa konvensiyasining 3-moddasini buzadi. Sud AQShda o'lim jazosi jarayonidagi uzoq kutish, izolyatsiya, ruhiy bosim va qo'rquvni "death row phenomenon" deb atadi va uni inson qadr-qim*Soering v. United Kingdom* ishi xalqaro huquq amaliyotida ekstraditsiya jarayoniga inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashuvni tubdan o'zgartirgan presedent hisoblanadi. Mazkur ish natijasida ekstraditsiya endilikda faqat davlatlar o'rtasidagi jinoyat-huquqiy hamkorlik vositasi emas, balki shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi mexanizm sifatida talqin etila boshlandi. Sud tomonidan ishlab chiqilgan "death row phenomenon" konsepsiyasi shuni ko'rsatdiki, shaxsni o'lim jazosi qo'llanilishi ehtimoli bo'lgan mamlakatga topshirish, hatto jazoni ijro etishning o'zi emas, balki

³ Xalqaro huquq bo'yicha keyslar to'plami [Matn]: o'quv qo'llanma / Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2024.384 b

kutish jarayonining ruhiy va jismoniy azoblari ham Yevropa Konvensiyasining 3-moddasini buzishi mumkin.

Ushbu qaror davlatlarning ekstraditsiya qilinayotgan shaxsning holatini oldindan baholash majburiyatini kuchaytirdi va “non-refoulement” tamoyilini kengroq mazmunda qo‘llashga olib keldi. Bundan tashqari, Soering ishi mintaqaviy sudlar, jumladan, Yevropa, Amerika va Afrika inson huquqlari tizimlarida ekstraditsiya, deportatsiya va qaytarib yuborish masalalarida qo‘llaniladigan universal standartga aylandi. Natijada, davlatlar nafaqat o‘z hududidagi huquqni, balki topshiriladigan davlatdagi jarayon va sharoitlarni ham inson huquqlari kontekstida baholashi shart bo‘ldi. Shu tariqa, Soering presedenti ekstraditsiya institutining rivojlanishida insonparvarlik tamoyillarini ustuvorlik darajasiga ko‘tardi va xalqaro huquqning zamonaviy inson huquqlariga asoslangan yondashuvini shakllantirishga muhim hissa qo‘shdi.

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi Konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (MPGPP) hamda mintaqaviy sudlar amaliyoti ekstraditsiya jarayonida inson huquqlarini himoyalashga qaratilgan qat’iy standartlarni shakllantirgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxsni boshqa davlatga topshirish faqat jinoyat-huquqiy hamkorlikning texnik jarayoni emas, balki shaxsning fundamental huquqlariga tahdid mavjud yoki mavjud bo‘lish ehtimoli bo‘lgan holatlarda mutlaq cheklovlar bilan tartibga solinadi.

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi Konvensiyaning 3-moddasiga ko‘ra, agar shaxsni topshirish natijasida unga nisbatan qiynoq yoki g‘ayriinsoniy munosabat xavfi mavjud bo‘lsa, davlat ekstraditsiyani amalga oshirishga haqli emas. Ushbu qoida mutlaq xarakterga ega bo‘lib, davlatning xavfsizlik manfaatlari, jinoyatning og‘irligi yoki milliy manfaatlar bilan oqlanishi mumkin emas. Konvensiya shuningdek, xavfning mavjudligi umumiy vaziyatga emas, balki shaxsga nisbatan individual asosda baholanishini talab qiladi.

MPGPPning 6- va 7-moddalari ham ekstraditsiya jarayonida o‘lim jazosi, qiynoq va tahqirlovchi muomala xavfi mavjud bo‘lsa, topshirish taqiqlanishini belgilaydi. BMTning Inson huquqlari qo‘mitasi ushbu normalarni sharhlab, davlatlardan “real risk” standartini qo‘llashni talab qiladi, ya’ni xavf nazariy emas, balki ishonchli ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak.

Mintaqaviy inson huquqlari sudlari — xususan, Yevropa Inson huquqlari sudi (Soering, Chahal, Othman), Amerika Inson huquqlari sudi va Afrika Inson huquqlari mexanizmlari — ushbu tamoyillarni yanada mustahkamlab, amaliy qo‘llash mezonlarini ishlab chiqqan. Ularning qarorlari shaxsni topshirishdan avval quyidagi omillarni baholash majburiyatini yuklaydi:

- ✓ topshiriladigan davlatdagi inson huquqlari holati;
- ✓ sud tizimining mustaqilligi va adolatliligi;
- ✓ o'lim jazosi yoki qiynoqning amaliyotda qo'llanishi;
- ✓ sud jarayoni va qamoqxonalarda sharoitlarning real holati;
- ✓ diplomatik kafolatlarining ishonchliligi va ijro etilish mexanizmi.

Natijada, xalqaro huquqda davlatlarning ekstraditsiya bo'yicha majburiyatlari ikki tomonlama xarakter kasb etadi: bir tomondan, jinoyat jazodan qochmasligi tamoyilini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa shaxsning insoniy qadr-qimmatini kafolatlash. Shuning uchun ekstraditsiya qarori faqat huquqiy asoslar emas, balki xalqaro inson huquqlari standartlariga muvofiq holda ehtiyotkorlik bilan qabul qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. European Court of Human Rights. (1989). *Soering v. United Kingdom* (Application no. 14038/88). Strasbourg: ECtHR.
2. United Nations. (1984). *Convention against Torture and Other Cruel, Inhuman or Degrading Treatment or Punishment*. New York: UN Treaty Series.
3. United Nations. (1966). *International Covenant on Civil and Political Rights* (ICCPR). New York: United Nations General Assembly.
4. UN Human Rights Committee. (1992). *General Comment No. 20: Article 7 (Prohibition of Torture and Cruel Treatment)*. Geneva.
5. Nowak, M., & McArthur, E. (2008). *The United Nations Convention Against Torture – A Commentary*. Oxford: Oxford University Press.
6. Cassese, A. (2013). *International Criminal Law*. Oxford: Oxford University Press.
7. Bassiouni, M. C. (2014). *International Extradition: United States Law and Practice*. New York: Oxford University Press.
8. Council of Europe. (1950). *European Convention on Human Rights*. Rome.
9. *Othman (Abu Qatada) v. The United Kingdom*, ECtHR, Judgment of 17 January 2012, Application No. 8139/09.
10. International Law Commission (ILC). (2017). *Draft Articles on Crimes against Humanity with Commentaries*. United Nations.